



FARG'ONA VILOYATIIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-oktabr*





CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **8717** tani tashkil etib, 2022- yil 1- noyabrga nisbatan **1491** taga kamaygan (o'sish sur'ati **85,4** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **154** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **8563** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **19 112,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **106,5** % ni tashkil etdi.

Shujumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **1 594,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,0** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **17 518,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,4** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 685,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,1** %) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


	Jami, mlrd. so'm	2022-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	19 112,6	106,5	1 594,5	108,0	17 518,1	106,4
Shaharlar						
Farg'ona	3743,3	107,7	474,8	93,0	3268,5	110,3
Qo'qon	3466,6	118,2	255,2	129,4	3211,4	117,4
Quvasoy	328,0	106,2	19,3	48,5	308,6	114,8
Marg'ilon	2807,9	105,1	59,5	117,8	2748,4	104,8
Tumanlar						
Oltiariq	659,9	103,2	39,8	93,3	620,2	103,9
Qo'shtepa	459,9	103,3	8,5	170,2	451,3	102,5
Bag'dod	494,3	103,7	15,4	113,4	478,9	103,5
Buvayda	854,0	103,8	22,9	80,2	831,1	104,7
Beshariq	701,9	102,9	17,7	106,5	684,3	102,8
Quva	964,1	102,2	19,0	82,8	945,1	102,7
Uchko'prik	1523,1	101,5	583,1	122,9	940,0	91,6
Rishton	528,1	102,6	17,9	103,9	510,2	102,5
So'x	199,2	102,1	3,1	105,8	196,1	102,0
Toshloq	396,5	102,4	7,1	109,4	389,3	102,3
O'zbekiston	394,0	101,6	15,8	116,0	378,2	101,1
Farg'ona	516,3	101,6	8,4	99,0	507,9	101,7
Dang'ara	440,5	101,2	13,0	106,1	427,5	101,1
Furqat	287,0	102,4	6,6	113,6	280,4	102,2
Yozyovon	348,0	102,4	7,4	91,4	340,6	102,7

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan viloyatning Qo'qon (**118,2** %), Farg'ona (**107,7**) va Quvasoy (**106,2**) shaharlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.




YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-oktabr, mlrd.so'm)



So'nggi **6 yillikda** chakan savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda yanvar-oktabr oylarida kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **110,2 %** ni yoki **16 224,2** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda)



■ (2022-yil, 2023-yil yanvar-oktabr oylari)

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida o'sish sur'ati **106,5 %** ni tashkil qildi.



JAMI
mlrd. so'm

Jamiga nisbatan tovar aylanmasi ulushi (foizda)

Farg'ona viloyati	19 112,6	100,0
Farg'ona sh.	3 743,3	19,6
Qo'qon	3 466,6	18,1
Quvasoy	328,0	1,7
Marg'ilon	2 807,9	14,7
tumanlar		
Oltiariq t.	659,9	3,5
Qo'shtepa	459,9	2,4
Bag'dod	494,3	2,6
Buvayda	854,0	4,5
Beshariq	701,9	3,7
Quva	964,1	5,0
Uchko'prik	1 523,1	8,0
Rishton	528,1	2,8
So'x	199,2	1,0
Toshloq	396,5	2,1
O'zbekiston	394,0	2,1
Farg'ona	516,3	2,7
Dang'ara	440,5	2,3
Furqat	287,0	1,5
Yozyovon	348,0	1,8

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)

Eng yuqori hajm, % da



1

Farg'ona – 19,6

2

Qo'qon – 18,1

3

Marg'ilon – 14,7

Eng quyi hajm, % da



1

So'x – 1,0

2

Furqat – 1,5

3

Quvasoy - 1,7

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahari **19,6 %** bilan **3 743,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, So'x tumani **1,0 %** bilan **199,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **17 518,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **6,4** % ga ko'paydi Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,7** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **108,0** % ga o'sdi va **1 594,6** mlrd. so'mni tshkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,3** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha **So'x (98,5 %)** **Farg'ona (98,4 %)** va **Toshloq (98,2 %)** tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **8,3 %** ni tashkil etib, eng katta ulush **Uchko'prik** tumani (**38,3 %**), **Farg'ona** (**12,7 %**) va **Qo'qon** (**7,4 %**) shaharlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Farg'na viloyati	4 768,1	104,3
Shaharlar		
Farg'ona	11 800,9	102,4
Qo'qon	11 339,9	101,0
Quvasoy	3 286,2	103,9
Marg'ilon	11 308,6	103,3
Tumanlar		
Oltiariq	2 926,5	101,0
Qo'shtepa	2 236,8	100,6
Bag'dod	2 150,9	101,6
Buvayda	3 504,4	101,5
Beshariq	2 924,7	101,1
Quva	3 536,6	100,3
Uchko'prik	6 391,6	102,0
Rishton	2 468,0	100,5
So'x	2 408,8	100,1
Toshloq	1 834,6	100,2
O'zbekiston	1 695,3	108,5
Farg'ona	2 360,6	103,5
Dang'ara	2 526,0	105,9
Furqat	2 289,0	100,2
Yozyovon	2 943,8	100,3

2023- yilning yanvar-oktabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 768,1** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **104,3** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Farg'ona (11 800,9 mingso'm) Qo'qon (11 339,9 ming so'm), va Marg'ilon (11 308,6 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-oktabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 685,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **109,1** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 019,7** mlrd. so'mni (**133,6** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **666,2** mlrd so'mni tashkil etdi (**92,7** %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar - oktabr oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar - oktabr oyiga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	1 685,9	109,1	1 019,7	133,6	666,2	92,7
Shaharlar						
Farg'ona	201,3	131,0	191,1	146,9	10,2	43,3
Qo'qon	182,7	101,9	94,3	94,8	88,4	110,8
Quvasoy	38,2	87,3	13,0	82,2	25,2	90,2
Marg'ilon	196,9	118,9	126,4	127,9	70,6	105,5
Tumanlar						
Oltiariq	41,3	59,6	18,5	52,7	22,8	66,8
Qo'shtepa	79,9	161,9	50,0	222,3	29,9	111,4
Bag'dod	75,5	75,2	46,3	83,7	29,2	64,7
Buvayda	212,0	200,4	152,2	314,8	59,8	104,1
Beshariq	199,8	137,6	108,9	163,3	90,8	115,7
Quva	126,3	131,6	89,3	174,2	37,0	82,8
Uchko'prik	44,6	98,3	9,6	85,3	35,0	102,6
Rishton	88,7	94,2	40,6	163,7	48,1	69,4
So'x	27,0	66,8	17,2	161,0	9,8	33,0
Toshloq	35,8	158,4	11,6	130,7	24,2	176,2
O'zbekiston	31,5	52,3	16,0	41,5	15,5	71,8
Farg'ona	30,4	39,9	16,2	30,2	14,3	62,9
Dang'ara	7,5	32,4	2,0	14,7	5,4	59,0
Furqat	1,7	22,7	1,7	22,7	-	-
Yozyovon	64,9	95,7	14,7	85,6	50,2	99,1

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.



2023-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 019,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**385,4** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	385,4
	Non va non mahsulotlari	73,0
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	171,6
	Tovuq go'shti	56,0
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	70,6
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	20,9
	Tuxum	60,0
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	25,8
	Ziravorlar	29,1
	Tuzlamalar	18,4
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	16,1
	Nooziq-ovqat tovarlari	92,8

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **666,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **525,7** mlrd.so'm, qo'y va echkilar – **128,1** mlrd. so'mni, otlar – **7,8** mlrd. so'mni, parrandalar – **4,6** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so'm
	2 yoshdan kata bo'lgan qoramollar	298,7
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	122,4
	1 yoshgacah bo'lgan yosh mollar	104,6
	Qo'ylar	124,8
	Otlar	7,8
	Echkilar	3,3
	Kurka, o'rdak, g'oz	1,5
	Tovuqlar	2,3
	Quyionlar	0,3
	Qushlar	0,5

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **2 066** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – noyabr holatiga nisbatan **627** taga kamaygan va **76,7 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **3** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 063** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-oktabr oylarda umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **479,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,0 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **93,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar , mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	479,2	108,0	30,5	144,4	448,7	106,2
Shaharlar						
Farg'ona	175,2	112,7	30,5	144,4	144,7	107,8
Qo'qon	67,4	111,3	-	-	67,4	111,3
Quvasoy	22,0	104,0	-	-	22,0	104,0
Marg'ilon	60,8	104,6	-	-	60,8	104,6
Tumanlar						
Oltiariq	10,3	103,7	-	-	10,3	103,7
Qo'shtepa	6,4	103,5	-	-	6,4	103,5
Bag'dod	5,0	104,3	-	-	5,0	104,3
Buvayda	7,4	102,0	-	-	7,4	102,0
Beshariq	14,0	106,8	-	-	14,0	106,8
Quva	19,0	102,4	-	-	19,0	102,4
Uchko'prik	11,9	104,7	-	-	11,9	104,7
Rishton	20,5	99,4	-	-	20,5	99,4
So'x	6,3	104,4	-	-	6,3	104,4
Toshloq	17,2	109,8	-	-	17,2	109,8
O'zbekiston	5,9	102,9	-	-	5,9	102,9
Farg'ona	11,4	101,8	-	-	11,4	101,8
Dang'ara	9,6	102,9	-	-	9,6	102,9
Furqat	3,4	101,7	-	-	3,4	101,7
Yozyovon	5,4	104,2	-	-	5,4	104,2

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- noyabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) **3 340,5** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **17,0 %** ga ko'paydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 646,1** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **170,0 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **1 694,5** mlrd. so'mni o'tkan yilning mos davriga nisbatan **2,6 barobar** ga ko'paydi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrg. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Farg'na viloyati	3 340,5	117,0
Shaharlar		
Farg'ona	1170,0	107,7
Qo'qon	1514,9	127,3
Quvasoy	7,9	109,8
Marg'ilon	249,7	168,7
Tumanlar		
Oltiariq	4,7	108,1
Qo'shtepa	6,3	109,1
Bag'dod	12,3	107,5
Buvayda	16,3	109,6
Beshariq	1,6	111,5
Quva	4,5	107,9
Uchko'prik	23,0	110,0
Rishton	4,0	107,5
So'x	9,7	444,9
Toshloq	24,7	109,4
O'zbekiston	7,1	109,5
Farg'ona	5,9	110,3
Dang'ara	115,2	109,9
Furqat	47,1	109,5
Yozyovon	115,7	67,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qo'qon (**1 514,9** mlrd. so'm), Farg'ona (**1 170,0** mlrd. so'm) va Marg'ilon (**249,7** mlrd. so'm) shahar lari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **13 250,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **9,2 %** ga o'sdi.



Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **12 590,3** mlrd. so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **108,2%** ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **95,0 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Bag'dod tumani (**3,1 b.**), Yozyovon (**2,2 b.**) va Dang'ara (**1,5 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4755 tani tashkil etib, 2022- yil 1- noyabr holatiga nisbatan 411 taga kamaygan, o'sish sur'ati 92,0 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 21 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4734 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar , mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Mikrofirm a va kichik korxonal ar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	13 250,7	109,2	660,4	131,0	12 590,3	108,2
Shaharlar						
Farg'ona	2797,0	115,0	378,7	135,2	2418,4	112,4
Qo'qon	2481,0	116,2	76,2	1,5 b	2404,8	115,3
Quvasoy	396,8	114,4	-	-	396,8	114,4
Marg'ilon	2303,5	112,5	150,2	100,0	2153,2	105,1
Tumanlar						
Oltiariq	386,7	104,9	49,0	65,5	337,7	114,9
Qo'shtepa	173,2	105,4	-	-	173,2	105,4
Bag'dod	150,7	115,8	0,8	3,1 b	150,0	115,4
Buvayda	253,9	102,5	-	-	253,9	102,5
Beshariq	312,0	103,0	-	-	312,0	103,0
Quva	124,2	103,3	-	-	124,2	103,3
Uchko'prik	728,8	92,9	1,0	1,1	727,7	105,5
Rishton	47,8	104,2	1,2	100,6	46,7	104,3
So'x	20,4	97,6	0,7	98,8	19,8	97,5
Toshloq	1837,9	105,6	-	-	1837,9	105,6
O'zbekiston	227,7	103,6	0,7	1,6 b	227,0	103,5
Farg'ona	369,4	100,3	0,4	27,9	369,1	100,6
Dang'ara	368,8	97,1	0,7	1,5 b	368,1	97,0
Furqat	141,5	89,4	-	-	141,5	89,4
Yozyovon	129,3	103,9	0,8	2,2 b	128,4	103,5



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi
Tel. 71-202-80-44 (45)**